

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TABIATSHUNOSLIK” FAKULTETI

“Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta'lim yo'nalishi

IV-bosqich talabasi

Urinova Munira Sirojevnaning

Bitiruv malakaviy ishi

MAVZU: umumta'lim maktablarining

**7-sinflarida «surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusini
o`qitish metodikasi.**

Ilmiy rahbar: dots. Yu. B. Raxmatov

Navoiy-2011 y

**UMUMTALIM MAKTABLARINING 7-SINFLARIDA
«SURXONDARYO TABIIY-GEOGRAFIK RAYONI»
MAVZUSINI O`QITISH METODIKASI.**

REJA:

I. KIRISH

1.1. «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusining maktab geografiya ta'limida tutgan o`rni va ahamiyati.

1.2. «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusini o`qitishning maqsadlari va vazifalari.

A) Ta'limiy

B) Tarbiyaviy

V) Rivojlantiruvchi.

G) Milliy istiqlol g`oyasini singdirish.

II. ASOSIY QISM.

2.1. «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusini o`qitish metodlari.

2.2. «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusini o`qitishda noan'anaviy dars uslublarini qo'llash.

2.3. «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoniga» umumiy ta'rifi.

2.4 Darsni mustahmaklash, rivojlantirish va uyga topshiriq berish.

III. XULOSA

IV. FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan "Ta'lim to'g'risida" gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ko'rsatilgan sohalarni amalga oshirib borib, jamiyatimizning kelajagi uchun har tomonlama yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashning mohiyati, zamonaviy fan va texnikaning rivojlanish talablariga mos barkamol avlodni tarbiyalash masalalari izchillik bilan tahlil etilgan. Dasturda ko'rsatilgan dolzarb vazifalar va ularni amalga oshirish chora-tadbirlari jamiyat taraqqiyotini har tomonlama etuk qadrlarsiz. Ayniqsa o'qituvchilarsiz tasavvur etish qiyin.

Malakaviy pedagogik mutaxassislar tayyorlash esa ko'p jihatdan ularning metodik tayyorgarligiga bog'liqdir. Ayniqsa hozirgi axborot texnologiyalariga tayangan holda geografik hodisa, voqealarni hamda tabiiy-iqtisodiy geografik tushuntirishlarni o'quvchilar, talabalar ongiga etkazish va shakllantirish har bir mutaxassis o'qituvchilardan yuqori ma'suliyat talab qiladi.

"Ta'lim to'g'risida" gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da o'quvchilarga hamda talabalarga faqat geografiyaga oid bilim berish bilan cheklanmasdan balki ularda zarur ko'nikma va malaka hosil qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymoqda.

Har bir o'quvchi va talaba dars davomida olgan ko'nikma va malakalar asosida bilimlarni mustaqil egallash zarur bo'ladi.

Respublikamizda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ga muvofiq umumiy o`rta ta’limning barcha bo`g`inlarida o`quvchilarni muntazam bilim olish, ularda bilim olish ehtiyojlarini rivojlantirishni o`quvchilarda mehnat ko`nikmalarini mustaqil ijodiy fikrlash, kasb tanlashga va umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilishni o`z vataniga, xalqiga sadoqat, mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashdek vazifalarni belgilaydi.

Bu vazifalarni bajarishda geografik ta’limi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa tabiiy va iqtisodiy geografiya fanlarini o`qitish borasida milliy dasturda qo`yilgan vazifalarni bajarish cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini tajribalar isbotlamoqda.

Bularning barchasi geografiya fani o`qituvchisidan yuksak pedagogik mahorat, o`z faoliyatidagi yutuq va kamchiliklarni tahlil qila olishni, o`z ish tajribasini tahlil qilib umumlashtira olishni boshqa o`qituvchilarning tajribasini umumlashtirishi va samarali usullar, metodlardan o`z ishida oqilona foydalanishni talab qiladi.

Men ushbu bitiruv malakali ishimda umumta’lim maktablarining 7- sinflarida O`zbekiston tabiiy geografiyasi fanida berilgan o`z o`lkasini o`rganish, ya’ni o`zim o`rganib kelayotgan “Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni” mavzusini o`qitishda geografiya ta’limida qo`llaniladigan metodlardan foydalanilgan holda yozishga harakat qildim. Bundan tashqari maktab amaliyoti davomida o`zlashtirilgan ko`nikma va tajribalarimga tayangan holda mavzuni o`qishda qo`llaniladigan ko`rgazmali qurollar,

kartalar, jadvallar, grafiklardan foydalanish yo'llarini yoritishga harakat qildim.

Mavzuni o`qitishda yangi pedagogik texnologiyalaridan, yangi axborotlarni to`plash, internet tizimi, gazeta-jurnallardan foydalangan holda ularni tahlil qilishga harakat qildim.

“Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni”ni o`rganishda respublikamiz viloyatlarning tabiiy geografik xususiyatlarining o`zgarish sabablarini, iqtisodiy, madaniy yutuqlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Keyingi yillardagi tadqiqotlar shuni ko`rsatadiki, ilmiy texnika taraqqiyoti va ijtimoiy sohadagi yutuqlar geografiya fanining maqsadi va vazifalariga hamda mazmuniga o`z ta'sirini ko`rsatmoqda.

Bu borada buyuk olim N.N.Baranskiy tabiiy-iqtisodiy geografik tadqiqotlarda geografiya mehnat taqsimoti tushunchasini ahamiyatiga to`xtalib, bu tushunchaning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiya uchun ahamiyati nihoyatda katta ekanligini, uning tabiiy-iqtisodiy nazariyasi boshqa tabiiy-iqtisodiy fanlar bilan bog`lovchi vosita ekanligini doim uqtirib kelgan.

Bu tushuncha mavzusini o`rganishning deyarli barcha mavzularida mamlakatlar, shaharlar, rayonlar, o`lkalar tabiatini hamda xo`jaligini o`rganishda xo`jalik tarmoqlari o`rtasidagi aloqalarni bilishda katta ahamiyat kasb etadi.

Geografik mehnat taqsimoti tushunchasi o`quvchilar bilimini ma'lum bir tizimga solishda, uning yordamida boshqa

iqtisodiy geografik tushunchalarning shakllanishi ancha engillashadi.

Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni mavzusida tabiiy-iqtisodiy geografik tushunchasi tarmoqlar misolida har bir tarmoq xususiyatlari va joylashishi chuqur o`rganiladi.

Ayniqsa tarmoqlarning tabiiy-iqtisodiy kartalari va darsliklardan xilma-xil mazmundagi kartalar hududiy ixtisoslashishi va tarmoqlar geografiyasidagi iqtisodiy aloqalarni bilib olishda katta ahamiyatga ega.

“Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni” mavzusini o`rganishning asosiy joylaridan biri mamlakatlar, respublikalar, viloytlar, tumanlar geografiyasi hisoblanadi.

“Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni” mavzusini o`rganishda eng asosiy obyekt tabiiy geografik xususiyatlari, aholisi va xo`jaligi yetakchi o`rin egallaydi. Bundan tashqari respublikamizning siyosiy tuzumi, kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari, tabiiy sharoiti materiallari bir- biri bilan chambarchas bog`liqdir.

Bu materiallar darslikdan materiallarni to`ldirishda ayrim hollarda esa illyustratsiya vazifasini o`taydi.

Umumiy holda aytadigan bo`lsak, umumta`lim maktablarining 7-sinfida o`tiladigan o`z o`lkasi geografiyasi “Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni” mavzusini o`rganishda darsliklarda berilgan bilimlar, ko`nikmalar, malakalar hamda dunyoqarash g`oyalarini jamlagan holda o`rganildi. Chunki bilim

ijtimoiy mehnat va tafakkur muhim bo`lib, mavzuni yoritishda mavjud ma'lumotlarni til vositasi bilan ifoda qiladi.

Ko`nikma esa mashq qilish natijasida beriladigan harakatlar yig`indisidir. Bu iqtidor va ko`nikma mashq qilish va takrorlash orqali malakaga aylanadi.

Umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida o`tiladigan "Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni" mavzusini o`rganishda o`quvchilar o`z fikr va muloxazalarini amalda bajarishga intiladilar.

Surxondaryo tabiiy-geografik rayonining qo`shni viloyatlar orasida tutgan o`rni, ular bilan olib borilayotgan aloqalari haqidagi bilim va ko`nikmalarni o`z ichiga oladi.

Ayniqsa o`qituvchi tomonidan tavsiya etilgan va rejalar asosida tayyorlangan jadvallarni mustaqil to`ldirish orqali o`quvchilarda geografik ko`nikmalarni shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.


Malakaviy bitiruv ishimni yozishda menga yaqindan yordam bergan geografiya kafedrası professor-o`qituvchilariga o`zimni minnatdorchiligimni bildiraman. Bitiruv ishimni kelgusida umumta'lim maktablarining 7-sinfida O`zbekiston tabiiy geografiyasi fanidan o`tiladigan mavzularida foydalanishga xarakat qilaman.

SURXONDARYO TABIIY-GEOGRAFIK RAYONI

SHARTLI BELGILAR


- | | |
|------------------------|---------------------------------------|
| ■ Toshko'mir | ☒ Ohaktosh |
| ▲ Neft | □ Oqilama qumlari |
| ▲ Neft va tabiiy gaz | ◇ Granit |
| △ Tabiiy gaz | ■ Bentonit, olovga chidamli tuproqlar |
| ⊙ Polimetall rudalari | ■ G'isht-cherepitsa xom ashyosi |
| □ Osh tuzi | □ Sement xom ashyosi |
| □ Keramzit xom ashyosi | ⬇ Mineral suv buloqlari |
| □ Gips | |

BALANDLIK SHKALASI METRLARDA



Masshtab 1:1 000 000

1 smda 10 km
km 10 0 10 20 30 40 km



Uchqizil suv ombori

Boysuntov darasi

Hisor tizmasi etaklarida

UMUMTA'LIM MAKTABLARINING 7-SINFLARIDA
«SURXONDARYO TABIIY-GEOGRAFIK RAYONI»
MAVZUSINING MAKTAB GEOGRAFIYA TA'LIMIDA
TUTGAN O'RNINI VA AHAMIYATI

Maktab geografiya ta'limida «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturiga muvofiq bir soat ajratilgan. Bu mavzu O'zbekiston tabiiy geografiyasi fanini o'tganda

«Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» haqida ma'lumot beriladi.

Viloyat hududi O'zbekiston respublikasining eng janubida Surxon-Sherobod vodiysi deb ataladigan cho'l maskanida joylashgan.

Bu o'lka sharqdan va shimoli-sharqdan Tojikiston respublikasi bilan Bobotog' va Hisor tog'lari orqali chegaralanadi. Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni shimoli-g'arb tomondan Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh, bu chegara Chaqchar va Boysun tog'lari orqali o'tadi. Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni g'arbda Turkmaniston respublikasi bilan chegaradosh bo'lib, Ko'hitang tog'ining suv ayirg'ich qisimidan o'tadi. Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni janubda Afg'oniston davlati bilan Amudaryo orqali o'tgan davlat chegarasiga to'g'ri keladi. Afg'oniston davlati bilan Amudaryo orqali o'tgan davlat chegarasi bugungi kunda bu chegara juda muhim ma'naviy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy mazmunga ega.

O'lka shimoli–sharqdan janubi-g'arbga qarab 200 kmdan ortiqroq masofaga cho'zilgan, kengligi 145 km. Hozirgi kunda viloyatning yer maydoni 20,8 ming kv.km. ni tashkil qiladi.

Surxondaryo viloyati zamini O`rta Osiyodagi eng qadimgi madaniyat o`choqlaridan biridir. Arxeologik davrlarning guvoh berishicha bu xududda Zarautsoydagi tarixiy yodgorliklar, Teshiktoshdan topilgan qadimgi odam suyaklari, eramizgacha I-asrda mavjud bo'gan Tokchiyontepa (hozirgi Denov shaxri) shaxarchasi, Xakim al-Termiziy maqbarasi va boshqa tarixiy xamda arxeologik yodgorliklar joylashgan. Bu joylar juda xushmanzara va sermazmun tabiatga ega bo'lgan. So`v bo`yi, qayirlarda qalin to`qayzorlar o`sgan, ov hayvonlari juda serob bo'lgan. Ibtidoiy aholi ovchilik va baliqchilik bilan mashg`ul bo'lganlar.

Bu mavzuni o`zlashtirishdan oldin o`quvchilar 7-sinf “O`zbekiston tabiiy geografiyasi” kursida tabiiy geografik rayonlarning tabiiy-iqtisodiy rivojlanishi bosqichlari, geologik tuzilishi, iqlimi, ichki suvlari, tuproq, o`simlik. Hayvonot dunyosi va tabiatni muxofoza qilish xamda aholisi va mehnat resurslari, sanoati va qishloq xo`jaligi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari haqidagi ma'lumotlarga ega bo`ladilar.

Bu bilim va ko`nikmalar «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» haqidagi ma'lumotlar o`quvchilar dunyoqarashini shakllantirishga olib keladi. Umumta'lim maktablarida dastlab O`zbekiston tabiatining xilma-xilligi, tabiiy

komponentlari va ularning o`zaro aloqadorligi, tabiiy sharoitining bir-biridan farq qilish xususiyatlari mavzulari o`tiladi.

O`quvchilar «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» haqidagi ma'lumotlarga ega bo`ladilar. Bu mavzular orqali o`quvchilar O`zbekistonning jumladan Surxondaryo viloyatining geografik o`rni, tabiiy sharoiti va foydali qazilmalari, geologik tuzilishi, reliefi, iqlimi, ichki suvlari, tuproq, o`simlik, hayvonot dunyosi hamda tabiiy resurslari haqidagi bilim va ko`nikmalarga ega bo`ladilar. O`zbekistonning jumladan Surxondaryo viloyatining tabiiy geografik jixatidan joylashganligi va uning tutgan o`rni, salohiyati, hozirgi holat, rivojlanish bosqichlari kabi bilimlar hamda yangi mavzuni o`zlashtirish uchun o`quvchilar ko`nikma, ongida yetarlicha tushuncha va yo`nalish hozirlangan bo`ladi.

«Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusining maktab geografiya ta'limida tutgan o`rni va ahamiyati quyidagilardan iborat.

- O`quvchilarning «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» haqidagi bilimlarni o`zlashtirish ularda bu mavzuga oid tushunchalarni kengayishiga olib keladi.**
- «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» orqali o`quvchilar O`zbekistonning, jumladan Surxondaryo viloyati tabiiy sharoiti va foydali qazilmalari, geologik tuzilishi, reliefi, iqlimi, ichki suvlari, tuproq, o`simlik, hayvonot dunyosi hamda aholisi va mehnat resurslari kabi bilimlarga ega bo`ladilar.**

- «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusini o`rganish bilan xududi, chegaralari, geografik o`rni, axolisi, sanoati, qishloq xo`jaligi, tabiiy sharoiti va resurslari, xo`jaligi, transporti, dam olish va turizm to`g`risidagi bilimlarga ega bo`ladilar.

Bu bilimlar o`quvchilarda «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» haqidagi bilimlarni olishga katta yordam beradi.

O`quvchilar ushbu mavzu orqali boshqa viloyatlar, ya'ni O`rta Osiyo mamlakatlarning tabiiy-iqtisodiy geografik hususiyatlari, alohida viloyatlarning tabiiy-iqtisodiy geografik hususiyatlarini, aholining o`sishi va xo`jalik geografiyasini, yuksak rivojlangan rayonlarini, eski sanoat rayonlarini, qoloq agrar rayonlarini, yangi o`zlashtirilayotgan rayonlarini, xalqaro iqtisodiy integrasiya ta'siri kabi bilim va ko`nikmalarga ega bo`ladilar.

«SURXONDARYO TABIIY-GEOGRAFIK RAYONI» MAVZUSINING OʻQITISHNING MAQSADLARI VA VAZIFALARI.

Har qanday darsning oʻz maqsadi boʻlib, oʻqituvchi darsga kirishdan oldin bajaradigan ishlarni rejalashtirib olishi, oʻz konspektiga maqsad qoʻyishi dars davomida esa oʻsha maqsadni amalga oshirish bundan chetga chiqmaslik kerak. Darsning maqsadi uning mazmuni asosida belgilanadi. Maqsad va mazmuni oʻrtasida maʼlum bogʻlanish mavjud.

Biz Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni va viloyatlarini oʻquvchilarga tushuntirayotganimida, maqsadimizni chuqur anglagan holda yondashishimiz kerak.

Umuman dars maqsadi 5 ta yoʻnalishni oʻz ichiga oladi. «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» oʻqituvchilar oʻquvchilarga oʻrganayotganda ham mana maqsadlaridan kelib chiqqan holda harakat qilishlari kerak.

A. Taʼlimiy maqsadi

«Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusini oʻrganish jarayonida oʻquvchilarda quyidagi bilim va koʻnikmalar hosil boʻladi.

- Surxondaryo viloyatining tabiiy-iqtisodiy geografik oʻrnining oʻziga xos xususiyatlarga ega ekanligi.

- O`zbekiston Respublikasi siyosiy kartasida viloyatlar maydonining XX asr davomida bir necha marotaba hamda so`ngi yillarda katta o`zgarishlarni boshidan kechirganligi.
- Surxondaryo viloyatining tabiiy geografik xususiyatlarining o`ziga xosligini.
- O`zbekiston jumladan Surxondaryo viloyatining tabiiy sharoiti va tabiiy resurlari o`rtasidagi tafovutlarni.
- O`zbekiston jumladan Surxondaryo viloyatining tabiiy sharoiti va foydali qazilmalari rayonlarining joylashuvi ya`ni toshko`mir xavzalarini, neft gaz xavzalarini, temir xavzalarini.
- O`zbekiston jumladan Surxondaryo viloyatining tabiiy sharoiti qishloq xo`jaligini rivojlantirishning qulayligini.
- O`zbekiston jumladan Surxondaryo viloyatining aholisi, o`zining ko`payishi, migrasiyasi, milliy – tarkibi o`rtanizasiya darajasi kabi bilimlarni.
- O`zbekiston jumladan Surxondaryo viloyatining xo`jaligi, uning viloyatlar orasidagi o`rni, respublikalar o`rtasidagi farqlari.
- O`zbekiston jumladan Surxondaryo viloyatining sanoati va uning yetakchi tarmoqlari haqidagi bilim va ko`nikmalarni egallashga imkon beradi.

B.Tarbiyaviy maqsadi:

Buyuk pedagogik olim mumtoz shoirimiz Abdulla Avloniy aytganlaridek “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko`p

zamonlardan beri taqrid qilinib kelgan, muammolarning diqqatlariga suyangan muqaddas bir vazifadur”.

Shunday ekan, mohir o`qituvchi, murabbiyning vazifasi o`quvchiga dars jarayonida faqat nazariy ilmiy masalalarni o`rgatishdan iboratgina bo`lib qolmay, balki u bolaning dunyoqarashi, didi va saloxiyatini ham shakllantirish, har bir insonni erkin fikrlaydi degan etuk shaxs bo`lib tarbiyalashiga xizmat qilishi lozim.

Har bir etuk ma`rifatli murabbiy darsni ma`naviy va axloqiy, pok iymonli, insofli diyonatli, or-nomusli va mexr oqibatli shaxsni kamol toptirish uchun xizmat qilishiga erishish lozim.

«Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusining tarbiyaviy maqsadi o`quvchilarning bilim va fikrlash qobiliyatini kengaytirishga qaratilgan. «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» ni o`rgnash, bu yerdagi davlatlarning geografik o`rni, tabiiy sharoiti, siyosiy kartasi, tabiiy resurslari, qazilma boyliklari, aholisi va mehnat resurslari, sanoat qishloq xo`jaligi, transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari haqidagi bilimlarni egallash, ular haqidagi ko`nikmalarga ega bo`lish kabi tushunchalar o`quvchilarning bilimini va fikrlash qobiliyatini kengaytirishga yordam beradi.

Jamiyatning iqtisodiy ijtimoiy taraqqiyoti bilan o`zaro chambarchas munosabatda bog`langanligi, unga kelajak avlodni ham moddiy ta`minlovchi manba nuqtai-nazari bilan bog`lovchi yuksak ma`rifatli va barkamol shaxsni tarbiyalashga erishiladi. Zero olimlarmiz ta`kidlaganidek “insonni inson qilib yetishtiruvchi narsa bu tarbiyadur”

V. Rivojlartiruvchi maqsad:

O`quvchilar «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusini o`zlashtirishlari bilan ular ongida quyidagi bilim va tushunchalar o`z o`rnini topadi.

- Surxondaryo viloyatining geografik o`rni uning ikki asosiy xususiyati bilan belgilanadi. Birinchidan bu viloyatlarning bir-biriga nisbatan yaqin qo`shni ekanligi o`ziga hos hususiyatdir.**
- Surxondaryo viloyatining geografik o`rni hududining kichikligi, chegaralarinning yaqinligi va transportning yaxshi yo`lga qo`yilganligi tufayli bu viloyatlar yo bevosita chegaralanadi, yoki kichik masofagina ularni o`zaro ajratib turadi. Buning ustiga bu chegaralar ko`proq shunday joylardan o`tadiki, ular transport aloqalari uchun uncha to`siq bo`la olmaydi.**
- Surxondaryo viloyatining geografik o`rni aksariyat viloyatlar qo`shni respublikalarga yondosh joylashgan bo`lib, ularning ko`pi eng gavjum avtomobil va temir yo`llar yaqinidadir.**
- Surxondaryo viloyatining va unga yondosh joylashgan viloyatlarning (Qashqadaryo, Turkmaniston va Afg'onistoniston respublikalari) butun hayoti qadim zamonlardan boshlab cho`l-saxro bilan chambarchas bog`liq; ularning har birini iborali qilib “saxro qizi” deb atasa bo`ladi.**
- Surxondaryo viloyatining tabiiy geografik xususiyatlaridan foydali qazilmalarni o`rganish lozim.**

- **Surxondaryo viloyatining tabiiy resurslari haqidagi ma'lumotlarni o'rganish muxim ahamiyat kasb etadi.**

G. Milliy istiqlol g'oyasini singdirish:

Milliy istiqlol g'oyasini singdirish borasidagi birinchi navbatda qilinadigan ishlar yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruxida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va insoniylik fazilatlarini payvand qilishdan iboratdir.

Har bir o'quvchi «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusini o'rganishdi usha davrda yashab ijod qilgan olimlar, sayoxatchilarning qilgan qahramonliklarini, qilgan tadqiq ishlari alohida e'tiborga olinib o'rganish alohida kasb etadi. Surxondaryo viloyatining geografik o'rni, chegaralari, foydali qazilmalari, tabiiy sharoiti va resurslarining xilma xilligi, ularning iqtisodiy rivojlanishi bosqichlarini kelajak avlodga targ'ibot qilish, tushuntirish va o'rgatishni maqsad qilib qo'yish lozim.

«Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusini o'rganishda har bir o'quvchi o'z oldiga tabiiy resurslarni qadrlash va uni asrab avaylab foydalanish, kelajak avlodning o'zi bilishi, tushunishi, qadrlashi hamda undan samarali foydalanish kabi tushunchalarni chuqur his qilmog'i lozim.

2.1 «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusini o`qitish metodlari.

O`quvchilarning geografik bilimlarini o`rganish jarayonidagi mantiqiy mulohazalari va mustaqil tafakkuri darsni o`qituvchi tomonidan tashkil etilishiga bog`liq. O`qituvchi o`quvchilardan murakkab masalalarni hal etishni talab etsa, ularning zehniy qobiliyatlarini ishga soladigan usullarni tadbqiq eta olsa, o`quvchilar o`sha murakkab masalalarni bilishga intiladilar. Avvalo o`qituvchi o`quvchilarga o`rganadigan bilimlarning mazmunini tahlil qilib, o`quv ishlaridagi usullarni aniqlaydi. Shundan keyin o`quvchilar fikrini qaysi vositalar bilan rivojlantirish mumkinligini bilib oladi.

Ta`lim metodlari o`quvchilarga bilim berish ko`nikma malakalarni egallash bilangina cheklanib qolmaydi. Ta`lim metodlari deyilganda, o`quvchilarning ijodiy faoliyatlarini shakllantiradigan bilimlarni mustaqil o`zlashtirishga o`rgatadigan, o`laroq ilmiy bilimni asoslangan to`g`ri dunyoqarash va e`tiqodni tarbiyalaydigan metodlarga tushuniladi.

Ta`lim metodlari o`qitishning umumiy va aniq maqsadlariga hamda maktab ta`limining mazmuniga ham bog`liq. Ilmiy-texnika jarayoni sharoitida an`anaviy metodlarni takomillashtirishga va yangi metodlarni izlab topishga tobora jiddiy talablar qo`yilmoqda. Ta`lim nazariyasi va geografiya ta`limida hozirgi kunda quyidagi tasnif keng tarqalgan:

I. Bilim olishning asosiy manbalariga ko`ra;

II. Didaktik maqsadlarga ko`ra;

III. Xulosa chiqarish faoliyatiga ko`ra.

Yuqoridagi barcha metodlarni shartli ravishda ikki: «Yangi bilim olish metodlariga va olingan bilimlarni qayta tiklash metodlariga» ajratish mumkin.

Biz «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusini umumta'lim maktablarida o`qitishda «Bilim olishning asosiy manbalariga ko`ra» turlaridan foydalanib, darslarni tashkil etish uslublarini ko`rib chiqamiz.

O`qituvchining har bir dars jarayonida keng qo`llash imkoniga ega bo`lgan, o`quvchilar ongiga tez yetib borishi va puhta bilim, ko`nikmalar xosil qiladigan metod turi bu-og`zaki bayon metodidir. O`g`zaki bayon ta'lim tarbiyada muhim ahamiyatga ega bo`lib, u geografiya fanining zamonga mos ravishda rivojlanayotgan turli jabhalari va muammolari, yutuqlari to`g`risida tanishtiriladi. O`qituvchi nutqidagi mantiq intonatsiya, o`rg`uning kuchi, dalillarning jonli va ishonarli bo`lishi o`qituvchilarning ongiga, his-tuyg`ulariga, kuchli ta'sir ko`rsatadi, ularni fikrlashiga o`rgatadi, ma'lum hulosalarga olib keladi. Jonli nutq o`quvchilarning bilim olishidagi boshqa manbalar, kursatmali qurollar va matnlar mazmunini tushuntirish, ular ustida mustaqil ishlashga, fikr yuritishga ham yul ochib byeradi.

O`g`zaki bayon boshqa metodlar bilan kushib olib borilishi kyerak. O`qituvchining o`g`zaki bayoni shuning uchun ham muhimki, o`quvchi darsga oid ma'lumotlarni darslikdan, kitoblardan qayta-qayta o`zlashtirishi mumkin. Lekin o`qituvchining bayonini qayta

eshita olmaydi. Shuning uchun o`qituvchi dars jarayonida darslikdan tashhari ma'lumotlardan keng foydalanish va mavzuning asosiy zaruriy qismlarini yodda qoladigan qilib ta'kidlab o'tmogi lozim.

«Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusini o`qitishda o`qituvchi og`zaki bayon metodidan foydalanib, «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning tabiiy sharoiti, geologik tuzilishi juda murakkab bosqichlarni va burmalanishlarni o`z boshidan kechirganligi, o`lkada foydali qazilmalar juda ko`p ekanligini, har qaysi tabiiy-geografik rayon hududi o`ziga xos foydali qazilmalarga ega ekanligini O'zbekistonning tabiiy kartasidan foydalanib og`zaki bayon etadi. «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» hududi turli tabiiy sharoitda, geologik davrlarda rivojlanganligini ko`rsatadi. Geologik taraqqiyot davomida turli burmalanishlar va vulqon harakatlarini o`z boshidan kechirganliklarini, hududdagi tog'lar, tog' tizmalari, tog' sistemalari, tekisliklar, pasttekisliklar, botiqlar, vodiylar va cho'llarning tarkib topishi to`g`risidagi ilmiy ma'lumotlarni taqqoslash, statistika, jadval va diagrammalar, kartalar yordamidan foydalanib og`zaki bayon etadi.

O'g'zaki bayon davomida o`quvchilar faoliyatini oshiruvchan turli usullar: taqqoslash, nam joylarni kartadan toptirish, savol-javoblardan foydalanish, o`rganilgan masalalar yuzasidan hulosalar chiqarish lozim. O`qituvchilar bilim va ma'lumotlarni yahshiroq o`zlashtirib olishlari uchun ularnnng e'tiborini ko`proq asosiy masalalarga jalb qilish

mavzuning asosiy va ikkinchi darajali o`rinlarini ajrata olishlariga imkoniyat yaratish lozim.

O`quvchilarga geografik qonuniyatlarni, geografik jarayonlarni kengroq ochib berish lozim bo`lganda tushuntirish metodidan foydalaniladi. «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning tabiiy sharoiti, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari qaysi geologik davrlarda rivojlanganligi, ularlarning eralar va davrlar kesimida tushuntirish va foydali qazilmalarning vujudga kelishi hususiyatlarini ochib berish kabi tushunchalarini yetkazish lozim. Geologik rivojlanishning ma`lum qonuniyat asosida borganligi ham diqqatga sazovardir.

Bu qonuniyatlarni doskada quyidagi tayanch reja asosida tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

- 1. «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning tabiiy sharoiti, geologik tuzilishi asosan qaysi era va davrlarda shakllangan va bunga sabab nima?**
- 2. Nima sababdan geologik taraqqiyotning asosiy bosqichlari Alp burmalanishiga to`g`ri keladi?**
- 3. Foydali qazilmalarning joylanish rayonlarini belgilang?**

Yuqoridagi savollar o`quvchilarda mustaqil fikrlash, hulosalar chiqarishga, voqea hodisalarnining sabablarini ajratishga va kelajakda muammolarni hal qilish tadbirlari izlab fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Nazariy va amaliy matyeriallarni puhta, izchil bayon qilish ilmiy bilimlarni egallashning asosini tashkil etadi.

Hikoya - o`quv matyeriallarini bayon qilish shakli bo`lib, asosan tasvirlash harakteriga ega. Bu uslubning ijobiy tomoni o`qituvchi o`quvchilar bilan ko`proq munosabatda bo`ladi. «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning tabiiy sharoiti, geologik tuzilishi va foydali qazilmalarining tashkil topishi, tarixi, joylashgan geografik o`rni, hududlari, tabiiy konlar va ularning tarqalgan havzalari, geologik sana, geologik eralar va davrlar, burmalanishlarning «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» hududidagi hususiyatlarini tushuntirishda hikoya metodi qo`l keladi. Hikoya davomida tabiiy sharoiti, geologik sana va geologik kartadagi ko`rsatgichlardan foydalanilsa hikoya qiziqarli chiqadi. Hikoyada darsning turli bosqichlarida va darsga xotima yasaydi. O`qituvchi hikoyani o`quvchinig yoshiga moslab tanlaydi. 7-sinflarda hikoya juda soddalashib ketmasligi unda tushunchalar masalan, «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning tabiiy sharoiti, geologik-geografik hususiyatlari, geologik taraqqiyotning rivojlanish darajasi bir-biriga nisbatan uzviy bog`langan va hakoza tushunchalar hamda atamalar albatta aks etishi lozim. Hikoya davomida o`qituvchi nazorat savollarini berib borishi, masalan, «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»dagi eng katta foydali qazilma konlari qaysilari, ular qaysi mintaqada joylashgan, ularning joylashgan hududlari, nomlari, qachon qazib olish boshlangan, asosan dunyodagi qaysi mamlakatlarga chiqaradi va eksport qiladi kabi savollarni berib borish mavzuning puxta o`zlashtirilishini ta`minlaydi.

Tushuntirish - o`qituvchilarga geografik qonuniyatlarni, geografik jarayonlarning mohiyatini ochib berishda keng qo`llaniladi. Bu metod geografiya ta'limida bilimlarni izchil o`rganish imkonini byeradi. «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning tabiiy sharoiti, geologik tuzilishi va foydali qazilmalarining eralar va davrlar bo'yicha rivojlanishi, ularning sabablari, geologik burmalanishlar, baykal, kaledon, gyersin, alp tushunchalari va ularning rivojlanish davrlari, hududga ta'siri, to'g' jinslarining to`planishi, hosil bo`lishi, tarqalishi, yoshi tushunchalarini izohlashda tushuntirish metodidan samarali foydalanish mumkin. Bundan tashqari «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning tabiiy sharoiti, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari hususiyatlarini viloyatlar bo'yicha tahlil qilib izohlashda tushuntirish metodidan foydalanish mumkin. Bunda o`qituvchi o`quvchilarni voqea va hodisalardan xabardor qiladi, ular o`rtasidagi aloqalarni ochib byeradi, xulosalar chiqaradi va yakunlaydi. O`qituvchi bunda qisqacha muammoli savollar berishi mumkin. Masalan: «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning tabiiy sharoiti, geologik tuzilishining geografik hususiyatlarining O'zbekiston respublikasining geologik tuzilishining geografik hususiyatlariga nisbatan farqlanishini, uning sabablari haqidagi bilimlarni aniq faktlar asosida izohlab berishi lozim. Tushuntirish bilan birga kartalar, diagrammalar, karta sxemalardan foydalanish ham ijobiy natijalar berib, bu o`quvchilar xotirasi va mavzuning chuqur o`rganishga sabab bo`ladi.

O`qituvchi va o`quvchining ikki tomonlama aloqasi tushuntirish metodini takomillashtirishga yordam beradi. Tushuntirish sodda, aniq, ravon bo`lishi lozim.

Maktab geografiya ta'limida alohida ahamiyat kasb etadigan suhbat metodida esa o`qituvchining savoli va o`quvchining javobi asosiy o`rin tutadi. Bu metodning bosh talabi mukammal o`ylangan savollar va o`quvchilar qaytarishi mumkin bo`lgan javoblarning puxta tuzilishidir. Bunda savol aniq bo`lishi, ya'ni o`quvchilar suhbat nima ustida borayotganini hamisha tushunishlari shart. Mavzu e'lon qilingandan so`ng savollar o`rtaga tashlanadi. Suhbat mantiqiy qismlarga bo`linadi, o`qituvchi o`quvchilar javobini tinglaydi, ularning javobidagi xatolarini tuzatadi va to`ldiradi. Shundan so`ng o`quvchilarni yakun yasashga undaydi.

Suhbat metodi o`qituvchi savoli va o`quvchining javobi asosida o`quv matyerialini o`zlashtirishi, mavzu mohiyatini tushuntirilish darajasi va bilim egalashning savol- javob shaklidir.

Suhbat metodini tashkil etishda qo'yiladigan asosiy talab-mukammal o`ylangan savollar tizimi va unga o`quvchining berishi mumkin bo`lgan javoblarining huxta tizimidir.

«Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusini o`tishda keng ko`lamdagi yevristik suhbatdan foydalanib quyidagi savolar tizimini o`quvchilar e'tiboriga havola qilish mumkin.

- «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning tabiiy sharoiti, geologik tuzilishi qanday rel'yef hususiyatlarini o`zida aks ettiradi?

- Tabiiy sharoiti, geologik tuzilishi nima sababdan turlicha?
- Tog'larining uzunligi, maydoni, balandligi, cho'qqisi qanchaga teng?
- «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning yirik foydali qazilmalar konlari nomlarini ayting.
- «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»dagi eng uzun to'g' sistemasi qaysi va u qanday nom bilan ataladi?
- «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning tektonik kartasini tahlil qiling?
- «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»dagi yirik foydali qazilmalar konlarining nomlarini ayting?
- «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»da ro'y bergan geologik burmalanishlarning nomlarini ayting?
- «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»dagi yirik rangli va nodir metallar konlari zahirasini ayting?
- «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning qaysi hududlarida foydali qazilmalar keng tarqalgan va buning sababi nima?

Keng ko'lamdagi bunday suhbat asosan yangi bilimlarni o'rganish va yakuniy takrorlashda qo'llanib, savollar bir-birini to'ldirishi, sabab-alohadorlik qonuniyatlarini tushuntirishga yordam qilishi lozim. Savollarning javobini aytishga o'quvchi qiynalganda yoki javob to'liq bayon etilmaganda, o'qituvchi javoblar mazmunini o'zi keng yoritib berishi lozim. Suhbat boshqa metodlar bilan qo'shib olib boriladi. Bu metodlar bilan yana bir ijobiy xususiyati shundaki bu metodda mavzu matyerialini puxta o'rganish bilan bir vaqtda o'quvchilar bilimni aniqlash imkoni bo'ladi.

Ma'ruza metodidan umumtalim maktablarining yuqori sinflarida geografiya darslarida murakkab mavzuli va keng hajmli mavzularda foydalaniladi. Ma'ruza jarayonida mavzu ravon, ilmiy va izchillik asosida boshqa metodlar bilan uyg'unlashtirilib olib boriladi. Ma'ruza vaqtida xarita, jadval, grafik, tasvirli qo'llanmalar, doska va turli vositalardan unumli foydalanish imkoniyati mavjud.

- Ma'ruza ilmiy jihatdan mukammal bo'lishi lozim.**
- Ma'ruza darslik mazmuniga qaraganda keng, uni ko'p jihatdan oydinlashtiradigan bo'lishi kyerak.**
- Ma'ruza mazmunan ko'rgazmali bo'lishi kyerak.**
- Ma'ruza o'quvchilarni fikrlashga, voqea va hodisalarni tahlil qilishga, umumlashtirishga o'rgatishi kyerak.**
- Ma'ruzaning o'quvchilarga etib borish uchun o'qituvchi o'zining nutqi ustida ko'p ishlashi lozim.**
- Savollar ma'ruza yakunida byerilishi maqsadga muvofiq.**

Geografiya darslarida o'qituvchining o'qib berishi.

Matn badiiy jihatdan boy va ta'lim-tarbiya jarayonida ko'p usullarini qullashi imkoni tug'ilgan vaqtlarda bu metoddan foydaniladi. Mavzuga oid matnlarni geografik kitoblar, jurnal va gazetalardan olish mumkin.

Mavzuga oid badiiy mantlar: Zahriddin Bobur, Jalloliddin Manguberdi, Abu Rayhon Byeruniy va boshqa mutafakkirlarning asarlarada «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning tabiiy sharoiti, foydali qazilmalari, konlari, o'sha davrdagi geologik

hamda tektonik rivojlanishlari haqidagi ma'lumotlarni o`qib berish darsni qiziqarli va mazmunli o`tilishiga sabab bo`ladi.

Mavzuga oid gazeta va jurnallardagi yangiliklar: masalan, geologik taraqqiyot va davr muammolari, yangi ochilayotgan foydali qazilmalar haqidagi ma'lumotlarni o`qib berish darsni zamon va fan-texnika yutuqlari bilan uyg`unlashtirib olib borishga imkon byeradi. Geografiya darsligi bilan ishlash metodlari.

Nihoyatda xilma-xil bo`lib, ular quyidagilardan iborat.

- Matn bilan ishlash.
- Savol va topshiriqlar bilan ishlash.

«Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning tabiiy sharoiti, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari» mavzusi matni bilan ishlaganda geografiya o`qituvchisi o`quvchini matnni o`qib izchil o`rganishga erishishi lozim. Darslikda mavzuning boshlanish qismida bundan oldingi geografiya darslarida geologik tuzilishi mavzusini xotirada esga olish va ba'zi geologik tushunchalar mazmuni so`rash savollari mavjud. Mavzu matni bir necha qismlarga bo`linib har bir darsni mana shu qismlarga muvofiq reja asosida o`tish lozim. «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning tabiiy sharoiti, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari tasnifidan sung, eralar ta'rifi, yirik konlarning xususiyatlari, yyer ostining tuzilishi bayoni ketma-ketlik asosida ta'riflanadi. Mavzu yakunida matnni mustahkamlash va olingan bilimlarni rivojlantirish maqsadida savol va topshiriqlar berilgan. O`quvchilarning mustaqil fikrlash va izlanishlarini takomillashtirish

maqsadida savollardan va amalda bajarish uchun mo'ljallangan topshiriqlardan iborat. «O`ylab ko`ring va amalda bajarish» nomli topshiriqlar tizimi berilgan. O`quvchilar mustaqil ravishda «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning tabiiy sharoiti, geologik tuzilishini darslik matni va qo`shimcha adabiyotlar hamda o`qituvchi to`ldirishlari mumkin.

«Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning foydali qazilmalari.

Kon ning nomi	Joyla shga n manz ili (km)	Xavza- sining may- doni	Bosh konnin g joyi	Qazi b olinis h boshl anga	Qo's himc ha konl ari.	Eng ko'p qazib olingan vaqti	Qayta ishlana digan korxon asi
---------------------	---	----------------------------------	--------------------------	---	------------------------------------	--	--

2.2 «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusini o`qitishda noan'anaviy dars uslublarini qo'llash.

Yangi asr bo'sag'asida biz sifat jihatdan tamomila yangi xalqlar jamiyatiga, chuqur integratsiyalashgan iqtisodiy makonga, yagona kommunikatsiya va axborot tizimga kirish uchun shaxdam qadamlarni bosmoqdamiz. O'sha jamiyatda o'z o'rnimizni topish anchagina tayyorgarlikni, bilimni talab qilishni ham bugun anglab yetmoqdamiz. Bosgan qadamlarimiz qat'iyatli va ishonchli bo'lishi uchun esa bizga zamonaviy, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab oladigan raqobatbardosh kadrlar zarur. Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining kadr-qiymatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotga aniq maqsadga ega bo'lgan hur fikrlovchi insonlarni kamol toptirishda maktabning o'rne beqiyosdir.

Bugungi kunda butun jahonda tajribadan o'tgan, turli yunalishlar bo'yicha qo'llaniladigan uslublar bizning umumta'lim maktablarida sinovdan o'tmoqda.

Shuning uchun «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusini o'tishda ham hozirgi kun davr talabiga mos ravishda o'tilishi lozim.

«Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusi o'tilishi jarayonida mazmunan quyidagi turlarga bo'lib, savollarni tashkil etish mumkin.

Aniq va to'liq ma'lumotlarni o'zlashtirishga oid savollar.

«Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning geologik tuzilishini tahlil qiling. Geologik burmalanishlarning nomini amaliy

ishlar daftariga yozing. Qaysi geologik eralar va davrlarda xarakatlar kuchli rivojlangan? Rivojlangan davrlar va eralarning nomini birma-bir izohlang va nomini yozing. Qaysi era va davrlarda foydali qazilmalar shakllangan, rivojlangan va qaysi davrga to'g'ri keladi? «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning foydali qazilmalaridan neft-gaz, ko'mir, nodir va rangdor metallar qaysi xududlarda ko'p tarqalgan va qaysi sohalarda ishlatiladi. «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning foydali qazilmalari zaxirasi necha foizni tashkil etadi.

Kartani bilish va o'qib olishga oid savollar. Masalan: «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning tektonik kartasini tahlil qiling. Kartadagi punsonlarga qarab, «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning foydali qazilmalariga ko'ra eng yirik, katta, o'rta va kichik konlarini aniqlang va hakoza. Sabab aloqadorlik qonuniyatlarini o'zlashtirishga qaratilgan tarzda savol javoblar. Masalan; «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning qaysi hududlarida foydali qazilmalarning yirik konlari vujudga kelgan va hakoza.

Bunday savol javoblar o'quvchining fikrlash qobiliyatini charxlaydi, ularda mustaqil fikrlash, fanga qiziqish va ilm to'plashga intilish tuyg'ularini rivojlantiradi.

Noto'g'ri berilgan javoblar o'qituvchi tomonidan to'g'rilanib borilishi va aniq berilgan javoblar o'z navbatida qo'shimchalar kiritilib, to'ldirilib borishi lozim. Bunda savollar shunday qo'yilishi kerakki, berilgan javob asosiy fikrni ifodalashi va shu fikrni davom ettirishi kerak..

Geografiya ta'limida ma'ruza qilish darslari yirik mavzular o'qilayotganda va nazariy bilimlar ko'proq mujassamlangan mavzular qo'llaniladi. Mavzuni sinov seminar tizimi bilan qo'shib olib berish maqsadga muvofiqdir. Maktabda ma'ruza quyidagi didetik talablarga javob berishi kyerak.

- Ilmiy jihatdan mukammal bo'lishi kyerak.**
- Ma'ruza darslik mazmuniga qaraganda keng, uni ko'p jihatdan oydinlashtirish lozim.**
- Ma'ruza albatta ko'rgazmali bo'lishi kyerak.**
- Ma'ruza o'quvchilarni fikrlashga, voqea va xodisalarni tahlil qilishga, umumlashtirishga o'rgatishi kyerak.**

Yuqorida sanab o'tilgan barcha metodlarni kartalar, tasvirli qo'llanmalar, ko'rgazmali qurollar, jadvallar, grafiklar, diagrammalar va karta sxemalardan foydalangan holda dars jarayoni o'tiladi. Masalan geografiyani kartasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. O'rta maktablar uchun "7-sinf atlas" nashrdan chiqarilgan va biz o'tadigan mavzuga doir bu atlasda «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning geologik, tektonik va foydali qazilmalari, tabiiy resurslari kabi kartalari mavjud. Bundan tashqari «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning geologik va foydali qazilmalarining geografik xususiyatlarini xarakterlovchi kartalar mavjud.

Kartada biz bevosita kuzatish imkoniyatiga ega bo'lmagan voqea xodisalar ham tasvirlangan bo'ladi. U nafaqat ko'rgazmali qurolgina bo'lib qolmay, o'rganish ob'ekti, bilim manbai bo'lib ham xizmat qiladi. Karta yordamida egallagan bilimlar o'quvchilar

ongida uzoq saqlanib qoladi. Ularning aqliy faoliyatini rivojlantiradi. Ularda kuzatuvchanlik, tasavvur, mantiqiy fikrlash kabi xizmatlarni tarbiyalaydi.

Maktab geografiyasining mazmuni hozirgi zamon geografiya fani taraqqiyoti bilan bog`liq holda rivojlanib bormoqda. Geografiya fanini o`qitishning turli usullari va shakllari qaror topmoqda.

Bunda butun jahonda tajribadan o`tgan turli xil yo`nalishlar bo`yicha qo`llaniladigan uslublar bizning umumta`lim maktablarida sinovdan o`tmoqda.

Hozirgi kun davr talabiga mos ravishda noan`anaviy dars uslublarini qo`llash maqsadga muvofiqdir. Hozirgi zamon darslari bir necha o`nlab xususiyatlarga ega.

Bunda avvalambor o`quvchi shaxsini shakllantirishga, unda geografik madaniyatni rivojlantirishga e`tibor berish lozim. O`qituvchi o`quvchi bilimlarini faoliyati tashkil etishda asosiy tashkilotchi va maslaxatchi bo`lishi kerak. O`quv vazifalari muntazam kuzatilib borilishi, o`quv jarayoni paytida o`quvchilar o`rtasida o`zaro muloqatlar, o`zaro aloqa, suxbat va tortishuvlar bo`lishi lozim. Darsda bevosita o`z xududimizni mamlakat miqyosida va boshqa davlatlarga nisbatan taqqoslash muhim o`rin tutadi.

O`quvchilarda ijodiy faoliyatini rivojlantirish va zamonaviy darslarda, dars-seminar, dars-sinov, dars-o`yin, dars-konferensiya, muammoli vaziyat, "Mexmon chaqirish", "aqliy xujum", "rol o`yini", "qor uyumi", press konferensiya kabi

noan'anaviy dars uslublari qo'llanilmoqda. Quyida ushbu uslublardan foydalangan holda 7-sinflarda «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusini o'qitish yo'l-yo'riqlari bilan tanishib chiqamiz.

Hozirgi kunda ta'limni tashkil qilishning eng keng qo'llanilayotgan shakllaridan biri – seminar darsidir. Uning asosiy vazifasi o'quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini hamda mustaqillik xislatlarini tarbiyalashdan iborat. Aholi tarkibini o'rganishda o'quvchilarni bir necha guruhlariga bo'lib, ularning bir qismiga «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» shaharlar bo'yicha uyga vazifa qilib beriladi. Masalan: Termez shahrining tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari, Denov shahrining tabiiy-iqtisodiy geografik hususiyatlari, Sariosiy shahrining tabiiy-iqtisodiy geografik hususiyatlari va hokozolar. O'quvchilarga o'qituvchi qanday adabiyotlar, jurnallar va gazetalaridan ma'lumotlar olish mumkinligini tushuntiradi. Seminar mashg'ulotiga o'qituvchining o'zi xam puxta tayyorgarlik ko'radi. Chunki har bir o'quvchi mavzu doirasida to'plangan ma'lumotlarni o'qituvchi to'ldirib borishi lozim. Shu bilan birga har bir o'quvchi o'z ma'ruzasini hulosalashga o'rganish lozim.

O'quvchilar bilimi o'zlari bajargan ma'ruzalarining mazmuni va mohiyati rejasi va xulosasining mukammalligi va o'quvchi nutqi ravonligiga qarab o'qituvchi tomonidan baholanadi. Seminar darslari ko'p ijobiy xususiyatlarga ega bo'lib, qisqa vaqt ichida ko'p xajmli ma'lumot olish imkoniyati tug'iladi va o'quvchilarda turli bilim manbalari bilan ishlash ko'nikmalari

shakllanadi. Zamonaviy dars metodlarining ayrimlari bilimlarni mukammalligiga, ayrimlari mustaqil fikr yuritish va izlanishga, ayrimlari esa maxsus ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. O'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini charxlashga va xulosalar qilishga o'rgatuvchi metodlardan "aqliy xujum", "muammoli vaziyat" metodlari ham bor. Bunda butun bir sinfga mavzuga doir biror savol tashlanadi. Masalan, mavzumizga doir «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» qanday tabiiy-iqtisodiy omillar asosida rivojlanmoqda. O'quvchilar bu savolga birin – ketin ayta boshlaydilar: tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari, ishchi o'rinlarining ko'pligi, texnologiyalarining zamonaviyligi va hokozolar. O'qituvchi bu javoblarni doskaga yozib boradi va o'quvchilarga tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklariga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni ayting deb bergan savoliga o'quvchilar har bir javob bo'yicha qo'l ko'tarib tasdiqlaydilar. Bu savolga o'qituvchi o'z fikrini aytadi va aniq to'g'ri javobni belgilaydi. Yana shu mavzu bo'yicha o'rta: «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning qaysi tabiiy-iqtisodiy geografik tarmoqlari ko'proq rivojlangan degan savol tashlanadi. O'quvchilar unga sanoat va qishloq xo'jaligi hamda transport va boshqalar deb javob beradilar. O'qituvchi; «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning qaysi tabiiy-iqtisodiy geografik tarmoqlari qadimdan va hozirgi kunda ham rivojlangan tarmoqlarini belgilang degan savoliga o'quvchilar javoblari ichida eng ko'p to'qimachilik, neft-gaz, qishloq xo'jaligi, chorvachilik mavjud tarmog'ini belgilaydilar.

Ushbu muammoli savollar o`quvchilarni ijodiy faoliyatlarini oshirishga xizmat qiladi. Savollar mazmuni jixatdan teran bo`lishi lozim va o`quvchi uning javobini ishlashga xulosalar chiqarishga harakat qilmog`i lozim. Darsda o`quvchilarning puxta bilim egallashlari, ko`roq ma`lumot to`plashlari uchun “qor uyumi” uslubidan foydalanish ham qo`l keladi. Bunda o`qituvchi mavzuga doir savol beradi. Bu savolga har bir o`quvchi o`z bilimiga tayangan holda javob berishga harakat qiladi.

«Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning tabiiy-iqtisodiy geografik rivojlanishi qaysi yirik shaharlarga to`g`ri keladi” yoki «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning tabiiy-iqtisodiy geografik rivojlanishi kelajakda qanday geografik oqibatlarni keltirib chiqaradi” yoki «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning qaysi tabiiy-iqtisodiy geografik rivojlanishida hozirgi kunda qanday muammolar mavjud, Buxoro viloyatiining tabiiy-iqtisodiy geografik xususiyatlarini rivojlanish darajasiga siz qanday yo`l- yo`riq ko`rsatgan bo`lar edingiz kabi savollar ushbu uslubda qo`llanishi mumkin. Ba`zi bir dars turlarida o`quvchilarning to`liq qatnashishi imkoni bo`lmaydi. Lekin “qor uyumi” uslubidan foydalanganda har bir o`quvchi o`z fikr muloxazalarini bildiradi. Shuning uchun darsni qunt bilan tinglashga va unda faol ishtirok etishga harakat qiladi. Darsning mustaxkamlash qismida savol javoblar bilan birga qatorlar o`rtasida musobaqalar, geografik o`yinlar, krossvordlarni yechish kabi o`quvchilarning faolligini oshiruvchi uslublardan foydalanish qo`l keladi. Masalan, har bir qatordan bir vakil o`quvchi doskaga

chiqarilib, bu uchta o`quvchiga «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni»ning Termez shahrini, Denov shahrini, Sariosiy shahrini yozing deb savol berish mumkin.

O`quvchining qaysi biri ma'lum bir vaqt ichida ko`proq javob yozsa, ushbu o`quvchi yutib chiqqanligini aytib berish lozim. Bu narsa nafaqat darsga qiziqishining ortib borishiga balki, o`quvchining kattalar bilan ham muttasil ishlab borishiga sabab bo`ladi.

Navoiy shahridagi 7-umumta'lim maktabida o`quv amaliyoti davrida 7-sinflarda "O`zbekiston tabiiy geografiyasi fanidan «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusi bo'yicha ochiq dars o`tdim. Bu mavzuni o'tish jarayonida pedagogik amaliyot raxbarim M.Bektasov maslaxatlari bilan noan'anaviy dars uslublaridan dars- seminar, aqliy xujum va qatorlararo musoboqa turlarini qo'lladim. Natijada o`quvchilarning qiziqishlari va tayyorgarliklari ortdi. O`quvchilar butun dars davomida o`zaro baxs- munozara qildilar. Diagramma va kartalar bilapn ishlab natija va xulosalarni bayon qildilar. Darsning yakunida o`z oldimga qo'yilgan ta'limiy,tarbiyaviy va o`quvchilar bilimini rivojlantiruvchi maqsadlarga to'liq erishdim. Darsimiz qiziqarli va mazmunli o`tdi.

2.3 «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoniga» umumiy ta’rifi.

Surxondaryo o’lkasi O’zbekistonning eng janubida joylashgan. U o’z ichiga Surxon-Sherobod vodiysini va uning afrofini o’rab turgan tog’larni oladi. O’lka sharqdan va shimolli-sharqdan Bobotog’ va Hisor tog’lari orqalu Tojikiston bilan, Shimolli-g’arbda Qashqadaryo bilan chegaralanadi, chegara Chaqchar va Boysun tog’lari orqali o’tadi. G’arbda Turkmaniston bilan bo’lgan chegara Ko’hitang tog’ning suvayirg’ich qismidan o’tadi. Janubda chegara Afg’oniston bilan Amudaryo orqali o’tgan davlat chegarasiga to’g’ri keladi.

YER YUZASI, GEOLOGIK TUZILISHI VA FOYDALI QAZILMALARI

O’lkani shimol tomonidan Hisor tizmasi o’rab turadi. Bu tizmaning balandligi 4500-4600 metrga yetadi. O’zbekistondagi eng baland cho’qqi- Hazrat Sulton (4643m) shu joyda.

Hisor tizmasi janubi-g’arbida Chaqchar, Boysun, Surxontog’ kabi tarmoqlari joylashgan bo’lib, gersin tog’ hosil bo’lishida burmalangan.

Chaqchar tog'ining eng baland cho'qqisi Xuroson hisoblanib, 3744 metr ga yetadi. Boysuntog' ancha baland bo'lib, ayrim cho'qqilari shimoli-sharqida 3700 metr ga yetadi. Baysuntog'ning janubi-g'arbida Ko'hitang tog'i joylashgan. Ko'hitang janubi-g'arbga 50 km cho'zilgan va balandligi 3139 metr ga yetadi. Boysuntog'ning sharqida unga yonma-yon holda Surxontog' joylashgan, u qisqa, lekin ancha baland (3882 m) tog'dir. Bu tog'ning janubida Sherobod-Sariqamish past todlari (1126 m) joylashgan. Sherobod-Sariqamish past tog'ining janubi-g'arbida Klif-Sherobod past tog'i joylashgan.

Surxondaryo tabiiy geografik o'lkasining sharqida Bobotog' joylashgan. Bu tog' ancha yemirilib, pasayib qolgan bo'lib, eng baland Zarkosa cho'qqisi 2289 metr ga yetadi. Bobotog' g'arbga, Surxondaryo vodiysiga va janubga qarab asta-sekin pasayib ketadi. O'lkada, yuqorida qayd qilingan tog'lar orasida botiqlar joylashib neogen va antropogen davrning yotqiziqlari bilan to'lgan.

Surxondaryo vodiysi shimoli-sharqdan janubi-g'arbga taxminan 170 km cho'zilgan bo'lib, shu yo'nalishda pasayib boradi. Shakliga ko'ra vodiylar uchburchakka o'xshash. Uning janubi-g'arbiy qismi keng bo'lib, 110-115 km ga, shimoli-sharqi tor bo'lib, 15-20 km ga teng.

O'lkada qazilma boyliklardan neft va gaz, ko'mir, polimetall, alumin rudasi, gips, tuz, har xil qurilish materiallari konlari mavjud. Neft va gaz, asosan, Lalmikor, Ko'kaydi, Xovdog'dan, toshko'mir Sharq'undan qazib olinadi. Sariosiyoda polimetall rudasi, aluminiy rudasi, gips, ohak konlari bor. O'zbekistondagi eng katta Xo'jaikon tuz koni shu o'lkada joylashgan.

Surxondaryo janubida tarkibida har xil erigan moddalar saqlovchi bir necha mineral suvlar topilgan. Ularning eng muhimi Jayronxona mineral suvi hisoblanadi.

IQLIMI VA SUVLARI

Surxondaryo vodiysining iqlimi quruq subtropik iqlim. Lekin atrofidagi tog'larga ko'tarilgan sari iqlim o'zgaradi. O'lkaning tekislik qismida yoz serquyosh, issiq va quruq, tog'ga tomon harorat pasayib boradi. Qish qisqa va iliq, lekin atrofidagi tog'larda sovuqroq bo'ladi.

Yozda o'lkaning tekislik qismi juda isib ketadi. Iyulning o'rtacha harorati Denovda +28,2 C, Sherobodda +32,1 C ga yetadi. Yozda havo harorati Termizda +50 C ga ko'tarilganligi kuzatilgan (1914-yil 21-iyulda). Bu respublikamizda qayd qilingan eng yuqori haroratdir.

Qish o'lkaning tekislik qismida iliq bo'lib, yanvarning o'rtacha harorati Sherobod va Termizda +2,8 C ga teng. Lekin atrofidagi tog'larning 2500-3000 m balandliklarida yanvarning o'rtacha harorati -6 C dir. Ba'zan qishda sovuq havo massalari tog'lardan o'tib, tekislik qismi haroratini pasaytirib yuboradi. Shunday kezlarda havo harorati -20 – 25 C gacha pasayadi (18-rasm).

Surxondaryo o'lkasida yog'inlar notekis taqsimlangan. O'lkaning janubidagi tekisliklarga eng kam yog'in (yiliga 133-230 mm) tushadi. Lekin tog' yonbag'irlari bo'ylab ko'tarilgach, yogin miqdori ortib, 500-600 mm ga yetadi. Hisor tog'larining janubiy yonbag'irlariga 800-900 mm gacha yogintushishi mumkin, yillik yog'inning ko'p qismi qishda (46-48 foiz) va bahorda (43-44 foiz) yog'adi. Kuz oylariga yillik yog'inning 8-10 foizi, yozga esa atigi 1-2 foizi to'g'ri krladi.

Suvlari. Surxondaryo tabiiy-geografik o'lkasida uzunligi 20 km dan ortiq bo'lgan 35 ta daryo va daryochalar mavjud. Ularning bir yillik suv miqdori 3,8 km, yoki o'rtacha ko'p yillik suv sarfi sekundiga 119 m ni tashkil etadi. Bu daryolar ichida eng kattalari Surxondaryo va Sheroboddaryo hisoblanadi.

Surxondaryo To'polondaryo bilan Qoratog' daryolarining qo'shilishidan vujudga keladi.

To'polon Surxondaryoning eng katta va eng sersuv daryosi bo'lib, Hisor tog'ining 4648 m baland qismidan Qorasuv nomi bilan boshlanib,

G'ova irmog'ini qo'shib olgan To'polondaryo nomini oladi. Uning uzunligi 124 km, havzasining maydoni 2200 kv. km. U qor-muzlarning erishidan to'yinadi, to'lin suv davri V-VI oylariga to'g'ri keladi. Uning o'rtacha yillik suv sarfi sekundiga 54,6 m, eng ko'pi sekundiga 470 m, eng kami 5,7 m.

Qoratoldaryo Hisor tog'ining 4200 m balandlikdagi janubiy yonbag'ridan shu nom bilan boshlanadi. Uning uzunligi 100 km atrofida, suv yig'adidan havzasining maydoni 682 kv. km. Qoradaryo qor-muzlarning erishidan to'yinadi, binobarin, eng ko'p suvi V-VI oylarga to'g'ri keladi. Uning o'rtacha ko'p yillik suv sarfi sekundiga 23 m ni, maksimal suv sarfi sekundiga 239 m, minimal 2,5 m.

Surxondaryo To'polon bilan Qoratog' daryolarining qo'shilgan yeridan Amudaryogacha 196 km. Shu masofada o'ng tomondan Sangardak va Xo'jaipok irmoqlarini qo'shib oladi.

Surxondaryo asosan qor-muzlarning erishidan to'yinib, o'rtacha ko'p yillik suv sarfi Qorovultepa qishlog'I yonida sekundiga 70,2 m ni tashkil etadi, eng katta suv sarfi sekundiga 600 m, eng kami sekundiga 0,1 m.

Sheroboddaryo Boysun tog' va uning davomi hisoblangan Ko'hitang tog'ining sharqiy yonbag'ridan boshlanuvchi Irg'ovli va Qizilsoy daryolari qo'shilishidan vujudga keladi. U Sherobod shahridan quyida Qorasuvdaryo deb yuritiladi. Uning uzunligi 186 km bo'lib, o'rtacha ko'p yillik suv sarf sekundiga 7,5 m. Sheroboddaryo qor- yomg'ir suvlaridan to'yinganligi tufayli eng ko'p suvi IV-V oylarda oqadi.

Yerosti suvlari har xil davr yotqiziqlari orasida uchraydi. Paleogen va neogen davri yotqiziqlari orasidagi suv 140-150 m chuqurliklardan chiqib, chuchuk. Bo'r davri yotqiziqlari orasidagi 1000-2000 m chuqurliklardan chiquvchi mineral shifobaxsh suvlar harorati 60-70 ga yetadi.

Surxondaryo tabiiy geografik o'lkasida suv ta'minotini yaxshilash maqsadida Surxondaryoda Janubiy Surxon (suv sig'imi 800 mln.m), Uchqizil (suv sig'imi 16 mln.m) suv omborlari qurilgan.

Surxondaryo tabiiy geografik o'lkasining okean satihidan 500 m balandlikkacha bo'lgan joylarida och bo'z tuproq tarqalgan.

Yerosti suvlari yer betiga yaqin bo'lgan joylarda sho'rlashgan bo'z tuproq uchraydi. Surxondaryo va Sherobod daryolarining qayirlarida alluvial-o'tloq va botqoq tuproqlar uchrasa, janubiy qismidagi qum massivlarida qumli va qumloq tuproqlar uchraydi.

O'lkaning 500 m dan 1200 m balandlikkacha qismida oddiy va to'qtusli bo'z tuproqlar tarqalgan. Bunday tuproqlar ko'p joylarda o'zlashtirilib, mabaniy bo'z tuproqqa aylantirilgan.

Surxondaryoning 1500-2500 m dan balandda bo'lgan tog'yonbag'irlarida tog'-jigarrang tuproqlar tarqalgan bo'lib, tarkibidagi chirindi 4-6 foizga boradi. 2500 m dan yuqorida yaylov muntaqasi boshlanib, tog'-o'tloq, o'tloq, o'tloq-botqoq tuproq uchraydi.

O'simliklari. O'lkaning 500 m balandlikkacha bo'lgan qismida cho'l mintaqasiga oid o'simliklardan *rang*, *iloq*, *qo'ng'irbosh*, *no'xatak*, shuningdek, *shuvoq* va boshqa o'simliklar o'sadi. Yirik daryo qayirlarida to'qay o'simliklari mavjud. Yerosti suvlari yer betiga yaqin bo'lgan joylarda *sho'ralar* o'sadi. Surxondaryo vodiysining janubiy qismidagi qumloqlarda *juzg'un*, *qum ilog'i*, *quyonsuyak* kabi o'simliklar uchraydi.

Adirda ko'proq efemer o'simliklar hamda *shuvoq*, *kavrak*, *qo'ziquloq*, bir yillik *astragal*, *javdar*, *bug'doyiq* kabilar mavjud. Shuningdek, adirlarda butasimon o'simliklardan *itburun*, *bodom*, *zirk* kabilar ham o'sadi.

Surxondaryo tog'larida (1500-2500 m) *bug'doyiq*, *javdar*, *tipchoq*, *yovvoyi arpa*, *shirach*, qurg'oqchil va toshloq yerlarda *astragal* o'sadi. Butalardan *bodom*, *irg'ay*, *itburun*, *zirk*, daraxtlardan *archa*, *zarang*, *xandonpista*, *yong'oq*, *do'lana*, *terak* kabilar o'sadi. Surxondaryo o'lkasining sharqida joylashgan Bobotog' o'zining *xandonpistalari* bilan mashhurdir. Surxondaryo o'lkasining 2500 m dan baland qismida yaylov mintaqasi joylashib, unda subalp va alp o'tloqlari mavjud.

Surxondaryo vodiysida quruq subtropik iqlim tufayli *anor, anjir, xurmo, shakarqamish, sitrus* va boshqa issiqsevar mevali daraxtlar va mevalar yetishtiriladi. Jumladan, Devon subtropik o'simliklar maskanida issiq mamlakatlarda o'suvchi daraxt va mevalar yetishtirilmoqda.

Hayvonot dunyosi. Surxondaryo tabiiy geografik o'lkasida *bo'ri, tulki, bo'rsiq, kiyik, tog'takasi, tog'qo'yi, Hindiston maynasi, qaldirg'och,* kemiruvchilardan *kalamush, qo'shoyoq, yumronqoziq* yashaydi.

To'qaylarida *to'qay mushugi, qirg'ovul, yovvoyi cho'chqa, chiyabo'ri, tulki, g'oz, o'rdak* uchraydi.

Sudralib yuruvchilardan *o'qilon, Turkiston kapcha iloni, gekkon kaltakesakgi* bor. Bulardan tashqari, yana *jayra, tasqara, chil* va *kakliklar* ham yashaydi.

Surxondaryo o'lkasi tabiattini, xususan, Amudaryo to'qayzorlarini va Ko'hitang tog' landshaftini himoya ostiga olish uchun Surxondaryo qo'riqxonasi tashkil etilgan. Bu qo'riqxona ikkita qismdan iborat. Birinchi qismi Pag'ambarorol qo'riqxonasini o'z ichiga oladi. Unda to'qay landshafti va u yerdagi o'simliklar (*baland bo'yli qamishzorlar, ilonpechak, yovvoyi jiya, tol, teraklar* mavjud) hamda hayvonlar (*xongul, to'ng'iz, tulki, to'qay mushugi, chiyabo'ri, quyon, tojdor tustovuq, ilonlar* va boshqalar) himoya qilinadi.

Qo'riqxonaning ikkinchi qismi sobiq Ko'hitang buyurtmasining hududini o'z ichiga olib, tog' landshafti hamda *morxo'r, Buxoro tog' qo'yi, burgut* himoya ostida olingan. Shuningdek, qo'riqxona hududida Zarautkamar arxeologik yodgoligi ham joylashgan.

SURXONDARYO IQTISODIY GEOGRAFIK RAYONI

Iqtisodiy-geografik o'rni va tabiiy boyliklari. Surxondaryo viloyati O'zbekistonning eng janubida joylashgan. Hududi orqali Afg'oniston bilan chegaradosh. Amudaryoga qirilgan avtomobil va temiryo'l ko'prigi viloyatning iqtisodiy-geografik o'rnini xalqaro darajasi ko'tardi. Ko'pgina

davlatlar Afg'oniston bilan savdo-iqtisodiy aloqalarini shu ko'prik orqali amalgam oshirmoqda (112-rasm).

Viloyatning Surxon – Sherobod vodiysidan bo'lak qismi asosan tog'lardan iborat. Tog'lar shimoldan esuvchi sovuq havo oqimini to'sib turadi. Shu sababli u O'zbekistonning subtropik o'lkasi hisoblanadi. Yanvarning o'rtacha harorati 3° , iyulniki 30° . Tekisliklarda yiliga 130 mm dan 360 mm gacha, tog'oldi va tog' mintaqalarida 440-620 gacha yog'in yog'adi.

Ammo yozda bir necha kun issiq va quruq (afg'on) shamoli esib, ekinlarga zarar yetkazadi.

Sovuqsiz davr 247 kunga yetadi. Ijobiy harorat yig'indisi $5000^{\circ} - 5900^{\circ}$ C ga teglashadi.

Tekislik va tog'lardan yaylov ifatida foydalaniladi. Tog'lardagi mevali daraxtlar oziq-ovqat sanoati uchun qimmatbaho xom ashyo beradi.

Surxondaryo viloyatida foydali qazilmalar Qashqadaryo viloyatidagidan ham ko'p. Yer bag'rida neft, gaz, ko'mir, tuz va boshqa foydali qazilmalarning borligi sanoatning bir qancha tarmoqlarini rivojlantirish uchun imkon beradi.

Aholisi. Viloyat aholisining tabiiy ko'pyishi yuqori. Aholi zichligi har km^2 ga 80 kishi to'g'ri kladi.

XO'JALIGI VA UNING HUDUDIIY TASHKIL ETILISHI

Viloyat xo'jaligida agrosanoat majmuasi yetakchilik qiladi. Vodiyning eng issiq janubiy qismida ingichka tolali paxta yetishtiriladi. Paxtachilikka bog'liq holda pillachilik va go'sht-sut chorvachiligi ham rivojlanmoqda. Obikor dehqonchilikni rivojlantirishda Surxon va Sherobod daryolari alohida ahamiyatga egadir. Janubiy Surxon va Uchqizil suv omborlarining qurilishi talaygina yerlarni o'zlashtirish imkonini berdi. Surxondaryo vodiysininf janubiy qismii bilan keng Sherobod tekisligidagi obikor maydonlarini kengaytirish sohasida irrigatsiya ishlari jadal amalgam oshirilmoqda.

Mevachilik, polizchilik, sabzavotchilik, aholining qishloq xo'jaligidagi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, Denovdagi subtropik ekinlar tajriba stansiyasida xumor, ahorning 90 ga yaqin, anjirning esa 40 dan irtiq navi sinalmoqda. Viloyatning deyarli hamma tumanlarida, ayniqsa Denov tumanida bog'lar va uzumzorlar ko'p. Ishchi hamda dehqonlarning tomorqa xo'jaliklarida poliz va sabzavot ekinlari yetishtiriladi.

Chorvachilik qishloq xo'jaligining ikkinchi muhim tarmog'idir. Obikor dehqonchilik qilinadigan jamoa xo'jaliklarida go'sht-sut uchun jaydari qoramollar boqiladi. Tog' yaylovlarida go'sht va yog' uchun Hisor qo'ylari boqiladi: bu qo'ylarning ba'zilar 150 – 160 kg keladi. Tog'li tumanlarda go'sht, momiq va jun uchun angor echkiliari boqiladi. Vodiyning cho'l mintaqasida qorako'l qo'ylari boqish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Jahonga mashhur (Suxon suri) qorako'l terisi Surxondaryo viloyatida yetishtiriladi (113-rasm).

Sanoat. Yergil va oziq-ovqat sanoati ham viloyatnig yetakchi tarmoqlaridandir. Tog'-kon sanoati ham muhim o'rin tutadi. Xovdog', Uchqizil, Lalmikor va Ko'kaydi yaqinida neft va gaz konlari ishlab turibdi. O'zbekistondagi 3 ta yirik ko'mir konining 2 tasi Surxondaryoda bo'lib, bular Sharg'un va Boysun ko'mir konlaridir. Bu konlardan yaxshi sifatli ko'mir qazib olinadi. Viloyatda kimyo xom ashyosi hamda g'isht, ohak kabi binokorlik materiallari ishlab chiqarilmoqda.

Muostaqillikdan so'ng xorijiy hamkorlar bilan qo'shma korxonalar ishlay boshladi. Hindiston bilan hamkorlidagi (Farmed) qo'shma korxonasi mahalliy giyohlardan dori-darmonlar ishlab chiqarmoqda. Turkiya-Termiz "Po'lat" qo'shma korxanasida gilamlar ishlab chiqarilmoqda. Sanoat korxonalarining yiriklari Termiz va Devonda joylashgan (114-rasm). Viloyat hududida G'uzor – Boysun – Qumqo'rg'on termiryo'l qurilishi jadal olib borilmoqda.

Shaharlari. Termiz – (aholi mavzusidan shahar aholisi sonini aniqlang) viloyatning ma'muriy hamda madaniy markazi. U Amudaryoning o'ng

sohilida joylashgan. Termiz O'rta Osiyoning qadimiy shaharlaridan biridir. O'tgan asr boshlariga qadar Termiz harbiy va kichik chegara shahri edi. Unda yarim hunarmandchilik holatidagi bittagina paxta tozalaydigan zavod bo'lgan. Hozirgi Termiz obod shahar. Amudaryo porti hamda temiryo'l va avtomobil yo'li qurilgach, shahar muhim transport tuguni bo'lib qoldi. 1995-yili Termizda yangi zamonaviy aeroport qurildi.

Afg'onistonga va u orqali boshqa davlatlarga chiqariladigan hamda xorijdan Termiz porti orqali o'tadi. Demak, Termiz qishloq xo'jalik xom ashyosini qayta ishlovchi markaz hamda yirik daryo porti sifatida rivojlanmoqda. Shaharda paxta tozalash zavodi, sut-yog', non va go'sht kombinatlari, limonad zavodi, binokorlik materiallari ishlab chiqaradigan va boshqa mahalliy sanoat korxonalari bor. Shaharda universitet, tibbiyot va pedagogika bilim yurtlari, kinoteatrlar, kutubxonalar, klublar, o'lkashunoslik muzeyi ishlab turibdi. Hayvonot bog'I bor.

Denov – qadimgi yirik savdo va hunarmanchilik qishlog'i o'rnida barpo bo'lgan shahar. 1929-yilda Denovdan temiryo'l o'tgach, ishlab chiqarish tez rivojlana boshladi. Denov ixtisoslashgan. Unda paxta tozalash, sharob, moy-sut, motor ta'mirlash, g'isht zavodlari bor. R. Sherder nomidagi respublika bog'dorchilik, uzumchilik va sharobchilik ilmiytadqiqot institutining tajriba stansiyasi shu shaharda.

KARTA, DIAGRAMMA, DARSLIK VA KO'RGAZMALI VOSITALARDAN FOYDALANISH

O'qituvchi o'z mehnatining natijasiga darsda ta'limning ko'rgazmali vositalardan foydalanib erishishi mumkin. Bu vositalar darsni yaxshiroq, to'liqroq o'quvchilar tushunib etishida yordam beradi. Akademik Pavlovning isbotiga ko'ra inson so'z orqali 2 sek.da o'rganilayotgan jismni o'zlashtirilib olishi mumkin ekan. Shunday ekan, o'qituvchi darsda ko'rgazmali quroldan foydalanishi ham natijaga erishishning bir ko'rinishidir. Ko'rgazmali vositalarning ahamiyati qaqida "Suratni sinfga olib kirsang, soqov ham tilga kiradi"- deb aytilgan so'zning o'zi fikrimizning dalilidir. Ta'limning ko'rgazmali vositalarini 4 ta asosiy guruhga bo'lish mumkin.

1. BOSMA KO'RGAZMALI VOSITALAR


Bularga kartalar, sxemalar, jadvallar, applekatsiyalar misol bo'ladi.

KARTA GEOGRAFIYA'NING TILI

«Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusini o'quvchilarga o'rgatayotganimizda bizda bu o'lkaning geologik va tektonik kartasi hamda O'zbekistonning tabiiy va iqtisodiy kartasi kerak bo'ladi. O'quvchilarga o'lkaning geologik va tektonik tuzilishi, taraqqiyot davri, burmalanishlar, Foydali qazilmalar, yirik konlar, daryo va transport yo'llarini aloqida ko'rsatish ularning kartaga bo'lgan qiziqishlarini ortiradi.

Sxemalar. Bu mavzuni o'quvchilarga o'rgatishda o'lkaning geologik tuzilishi va tektonik kartasini xamda foydali qazilmalarining

chizmasini o'quvchilarga chizib ko'rsatsak, ularning tassovurlari, bilimlari ancha shakllanadi.



Jadvallar. Geografiyada muhim ahamiyatga ega. Jadvallar asosan statistik bilimlar asosida tuziladi. Indeks, koeffitsient va boshqalarni bilish turli va boy mazmunli jadvallar tuzish mumkin. Uni tuzishning muhim sharti u asosan eng yangi ma'lumotlar asosida tuziladi.

Diagrammalar. Tabiiy va iqtisodiy geografiyada muhim ahamiyatga ega. Diagrammalar orqali foydali qazilmalarning zaxirasi ulushini, aholining milliy tarkibi, sanoat yoki qishloq xo'jaligi sohalarining ulushini ifodalash mumkin.

2. TA'LIMNING EKRANLI VOSITALARI.

Bunga ekranli statistik vositalar va ekranli vositalar misol bo'la oladi. Bu vositalar ham darsning qiziharli, muvoffaqiyatli chiqishiga imkon byeradi. «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» o'lkasining geologik tuzilishi va foydali qazilmalarini o'quvchilarga o'rgatayotganimizda uning geologik tuzilishi va tektonikasi, foydali qazilmalari, sanoati, fabrika zavodlari qaqidagi filmlarni imkonicha vaqt topib o'quvchilarga ko'rsatish ham samarali natija byeradi.

3.TA'LIMNING OVOZLI VOSITALARI.

1.Gramplastinkalar

2. Magnitafon yozuvlari

3. Kompyutyerlar

hozirgi vaqtda o'quvchilarning informatsiyalarini qabul qilish manbalari ko'payib bormoqda.

Radio va televizion axborot vositalari, kompyutyer texnikasi, intyernet tarmoqlari orqali masofali ta'lim berish, bunda mavzu o'rganilayotganda o'quvchilardan ular ko'rgan, eshitgan ma'lumotlari so'raladi. O'quvchilarning darslik bilan ishlashi geografiya ta'limi jarayonida bilim manbai bo'lib xizmat qiladi. Darslik bilan ishlash o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlar qajmi va me'yorini belgilaydi. O'quvchilarning bilim olishga bo'lgan havaslarini oshiradi. Xar bir darsda o'quvchilarni mavjud bilimlardan foydalana olishga o'rgatish lozim.

Geografiya o'qituvchisi darsga ko'rgazmali qurollarsiz kirishi xech qanday samara byermaydi. Shuning uchun har bir yangi mavzu o'tilishidan oldin o'qituvchi o'sha mavzuga tegishli ko'rgazma vositalarini tayyorlab qo'yishi kerak. Zyero dars yutug' o'qituvchining yutug'i,dars kamchiligi uning kamchiligidir.

2.4 Darsni mustahmamlash, rivojlantirish va uyga topshiriq berish.

Mavzuni mustahkamlash, uyga vazifa, o'quvchilarning shaxsiy hususiyatlarini o'rganishga yordam byeradi. Darsda o'rganilgan mavzu mustahkamlab borilmasa o'rganilgan bilim o'quvchilar xotirasidan ko'tarilib ketadi. Mustahkamlash o'quvchi nutqini o'stiradi va bir qancha yo'l olib boriladi.

Dastlabki mustahamlash. Bunda odatda yangi material o'rganib bo'lingach dars oxirida o'tkaziladi. Mustahkamlash yangi matyerialni o'rganish bilan birga qo'shib olib borilishi mumkin. Dastlabki mustahkamlash, darslik va karta bilan ishlash, daftarga yozish, yozuvsiz kartani to'ldirish kabi o'quvchilarning amaliy va mustaqil ishlari tarzida olib boriladi. Mavzu bunday usulda mustahkamlanganda yangi o'rganilgan mavzuni ilgari o'rganilgan mavzuni taqoslash yaxshi natija byeradi. Mustahkamlashning yana bir yo'li takrorlash. Takrorlash darsning hamma qismida olib borish mumkin. «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusini o'rgatish o'quvchilarga muhim ahamiyatga ega. har bir mavzu tushintirilib bo'lgach dars yakunlanishi arafasida mavzuni mustahkamlab olish kerak. Bu usul bilan o'quvchilarning dars davomida o'zlashtirgan bilimlari sinaladi.

XULOSA

Tabiiy va iqtisodiy geografiya ham boshqa fanlar qatori yangicha sharoitda rivojlanib, mustaqil mamlakatlarining qudratini yanada mustahkamlashga o'zining munosib hissasini qo'shib bormoqda. O'quv jarayonida u yosh avlodga «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» o'lkasining o'ziga xos geologik tuzilishi, tektonikasi, tabiiy resursi, axolisining va xo'jaligining qududiy jiqatlarini, jahon siyosiy kartasi va hamjamiyatining nufuzini tobora ortib borishini o'rganishga yordam byeradi. Nazariy va amaliy yo'nalishda esa mazkur fan O'rta Osiyo davlatlarining mintaqaviy siyosati, ishlab chiharish kuchlarini joylashtirish bilan boqliq muammolarini hamda bozor munosobatlariga o'tish davrida xalq xo'jaligining turli tarmoqlari sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, aholiga xazmat ko'rsatish sohalari, infrastruktura tizimini shakllantirish, ijtimoiy ekologiya kabi muhim masalalarini tadqiq qilishda katta ahamiyatga ega.

Men malakaviy bitiruv ishimda «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni», uning geologik tuzilishi, tektonikasi, foydali qazilmalari, sanoati, aholisi, xo'jaligi va yirik shaxarlariga chuqurroq to'xtalishga va uni o'qitish usullariga katta aamiyat berdim.

Shuningdek birinchidan, ilgarigi o'ta markazlashgan jamiyatni rivojlantirish va boshqarish siyosati davrida regionlarga, mamlakat ichkarisiga bo'lgan e'tibor zaiflashgan edi. Buning oqibatida Sobiq Ittifoqning turli respublikalarida yashovchilar o'z yurtiga ko'ra o'zgani yaxshiroq bilar edilar. Bundan O'zbekiston ham mustasno emas. Hozirgi tahlil tuman va hatto yirik qishloqlar darajasiga

tushunish kerak. Vatanimiz dunyo nuqtai nazaridagina emas, balki jahonning O'zbekiston nuqtai nazaridan o'rganilishi kerak.

Ikkinchidan, tabiiy va iqtisodiy geografiya har holda geografik fanlar tizimiga kiradi. Ammo darslikda u hatto tabiiy geografiyadan ham uzoqlashib ketgan. Vaholanki bu ikki fan umumiy geografik mazmunga ega bo'lgan qonuniyat va kategoriya azonallik, komplekslilik, regionallik, geotizim, rayonlashtirish va boshqa tabiiy va notabiiy ya'ni ijtimoiy geografiyani nazariy uslubiy jihatdan bir biriga mustahkam bog'laydi. Men malakaviy bitiruv ishimda bu jihatlarga ham e'tibor berdim.

Uchinchidan, bizga ma'lumki tabiiy va iqtisodiy geografiyada sof va aniq iqtisodiy bilimlarga, statistikaga e'tibor ancha bo'shashgan. Menimcha, geografiya o'qituvchisi ham tabiiy va iqtisodiy geografiyani ham Amaliy geografiyani mukammal bilishi kerak.

Bu uning eng muhim betakror xususiyati, asosiy mazmun, moqiyat va maqsadidir. Dars jarayonida statistika asosida tuzilgan jadval, sxema, diagramma, dars maqsadiga etishishda muhim ahamiyatga ega.

To'rtinchidan, biz yaxshi bilamizki geografiyaga doim mukammal va mustahkam fan sifatida emas, oddiy o'quv fani sifatida harash odat tusiga kirib qolgan. Bu hol maktab geografiyasiga xosdir. Shu masalani hal etish uchun geografiya fani va uni o'rganish ob'ektlariga o'quvchilarni qiziqishi ortishiga olib kelishi mumkin. Geografiya ham matematika, ona tili, tarix kabi fanlar qatoriga olib chiqishi kerak.

Beshinchidan, geografiyani asosiy fanlar qatoriga olib chiqish uchun ko'b tadqiqotlar olib borilishi kerak. Rivojlangan mamlakatlarda makroiqtisodiy emas, mikro iqtisodiy masalalar tadqiq etiladi. Tabiiyki, bunday tadqiqotlarni aniqligi yuqoridir. Shuning uchun ham global va regional fikrlab lokal masshtabda amal qilish maqsadga muvofiqdir. «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusini o'quvchi o'rganishi uchun uch soatgina vaqt ajratilgan, bu albatta bu qududni o'rganish, chuqur tahlil qilish imkonini byermaydi. Ayniqsa, bu o'lkada yashovchilarning bilishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirmaydi.

Oltinchidan, men dastur tuzuvchilarga quyidagi maslaqatlarimni bergan bo'lardim: har bir tabiiy va iqtisodiy o'lka uch yoki to'rt soatdan o'tilsa ham o'quvchi yashayotgan tabiiy va iqtisodiy o'lka yoki viloyat kamida besh soatdan o'tilishi lozim. Buning uchun maxsus tabiiy va iqtisodiy o'lka xaqidagi qo'llanmalar, darslik sifatidagi kitoblar tayyorlanishi kerak. Bunda har bir tabiiy va iqtisodiy o'lkani tashkil etgan viloyat uning tumanlari yirik shaharlariga aloqida to'xtalib o'tish o'quvchi yashayotgan zaminni yanada chuqurroq bilishga xizmat qiladi.

Etinchidan. Biz shaqalarni o'rganishda, "Evropacha" harash va qolipdan uzoqda keta olmayapmiz. Ma'lumki O'rta.Osiyo madaniyati shaharlarning rivojlanishi o'ziga xos hususiyatga ega. To'g'ri O'zbekistonda urbanizatsiya ko'rsatkichini, ya'ni shahar aholisi ulushini rivojlangan mamlakatlarning 80-90% darajasida bashorat qilish haqiqatdan ancha yiroq. Ammo bu O'zbekistonda urbanizatsiya jarayoni mavjud emas degan xulosaga kelish noto'qri.

Aksincha u mamlakatimizda mavjud. Biroq uning tarixiy, iqtisodiy, geografik va boshqa hususiyatlari Evropa mamlakatlarinikidan tubdan farq qilishini o'quvchilarga taqlil qilib berish eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

O'rta Osiyo respublikalarining shaharlarini o'quvchilarga o'rgatishda urbonizatsiya hususiyatlariga aloqida etibor berish kerak. O'rta Osiyo mamlakatlarini shaharlari asosan yangi qurilgan shahar qisoblanib. Ular yangi sanoatlashgan XX asrda shaklangan, faqat O'zbekiston shaharlarigina azaldan ma'lum.

Sakkizinchidan. Geografiya fani jumladan boshqa fanlar aloqadorlikda olib borilishi kerak. Tabiiy va iqtisodiy geografiyaning yana bir omili uning ichki salohiyatidan boshqa fanlar bilan aloqadorlikda olib borilishi kerak. Tabiiy va iqtisodiy geografiyaning yana bir omili uning ichki salohiyati boshqa fanlar bilan qo'shnichiyalik mavqeidan to'laroq foydalanishi xisoblanadi. Men «Surxondaryo tabiiy-geografik rayoni» mavzusini o'qitish metodikasini malakaviy bitiruv ishimda yozib, shunga amin bo'ldimki. tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografiya-demografiya, tarix, etnografiya, tibbiyot, ququq, siyosat, psixologiya, sotsiologiya kabi fanlar bilan chambarchas boqliq ekan. Ammo "narigi qirqoq"ga o'tib ketmasligi uchun geografiya o'qituvchisi qududiylik, regionallik, komplekslilik hususiyatlariga asoslanishi kerak.

To'qqizinchidan. Mavzu o'rganilib bo'lgach, uning tabiati, ekologiyasi xaqida o'quvchilarga qisqacha ma'lumot berib o'tilishi lozim. Bizga ma'lumki 20 asrning 60 yillarigacha inson mehnat jarayonida tabiiy muqit katta miqyosda turli o'zgarishlarga

**uchramagan tabiatni komponentlari orasidagi o'zaro munosobatlari
va ta'sirlari ko'p yillar mobaynida deyarli urganmagan.**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida T. "O'zbekiston" 1995 yil.**
- 2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T. "O'zbekiston" 1999 yil.**
- 3. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch", Toshkent, "Ma'naviyat", 2008 yil.**
- 4. Ibroximov R. Kuchli zilzilalar izidan, T., «Fan», 1982 yil.**
- 5. Qoraboev K. Toshkentning geologik zamini, T., «Fan», 1982 yil.**
- 6. Shoraxmedov Sh. Umumiy va tarixiy geologiya, T., «O'qituvchi», 1985 yil.**
- 7. Kurbonov A. Geologiya, T., «O'qituvchi», 1992 yil.**
- 8. Asanov G., Nabixonov M., Safarov, O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi T. "O'zbekiston" 1997 yil**
- 9. Babanskiy. Hozirgi zamon ta'limi maktablarida o'qitish metodlari T. "O'qituvchi" 1990 yil**
- 10. Vetshteyn L.M. Ya Navaiyskiy sementchik. T. "FAN" 1999 yil**
- 11. Musaev P. O'zbekiston geografiyasini o'qitish T. "O'qituvchi" 1979 yil**
- 12. Muminov O. Zamonaviy geografiya darsiga quyiladigan talablar. T. "O'qituvchi" 1986 yil**
- 13. Muminov O. Zamonaviy geografiya darsiga quyiladigan talablar T. "O'qituvchi" 1990 yil**
- 14. Shalotonin qizilqum mingdan bir mo'jizasi T. "FAN" 1997 yil**
- 15. Chebikin A. Navoiy T. "Sharq" 1968 yil**

16. Qurbonniyozov R. O'zbekiston geografiyasi T. "O'qituvchi"
1997 yil

17. O'zbekiston, viloyatlar, qoraqalpog'iston T. "FAN". 1995 yil

18. O'zbekiston respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi T.
"O'zbekiston" 1996 yil

19. O'zbekiston milliy intsiklopediyasi T. 1999 yil

20. Do'stlik bayroqi. Marvarid shahar maqolasi 1998 yil. 29
avgust.

21. Xorijiy Evropa mamlakatlari, M., 2006 yil

22. Ergashev Sh. Surhon- Sherobod vodiysi, Toshkent, 1990 yil.

23. O'rta maktab geografiya darsliklari.